

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya o'qitish metodikasi
Bakalavr ta'lim yo'nalishi 3"B"kurs talabasi
Rajabova Feruzaning
Kichik hududlar geografiyasi fanidan
"Kap tog'lari" mavzusida yozgan

Amaliy ishi

Bajargan:
Qabul qildi:

Rajabova F
dots.Utepova G

2016

Mavzu: Kap tog'ları

Reja:

1. Geografik joylashgan o'рни

2. Iqlim xususiyatlari

3. Organik dunyosi

Maydoni jihatidan
Afrikaning eng kichik
tabiiy geografik o'lkasi
hisoblangan bu territoriya
Bengela oqimi ta'sirida
sovib turadigan okean
sohilida, yozi quruq
subtropik iqlim o'lkasida
joylashganligi relyefining
juda past-baland
bo'lganligi o'ziga xos
florasi tufayli tabiiy
sharoiti juda o'ziga
xosdir.





Kap tog' sistemasi Afrikaning janubi-g'arbiy va janubiy sohili bo'ylab bir-biriga parallel cho'zilgan o'rtacha balandlikdagi ko'pdan-ko'p qisqa antiklinal tizmalardan iboratdir. Bu tizmalar quyi paleozoyning qattiq jinslaridan tarkib topgan bo'lib, gersin sikli davrida burmalangan va ancha keyingi ko'tarilishlar natijasida qaytadan yashargan relyefi palaxsali bo'lib, eng baland joyi **2300** metrdan balandroq shimolda **Evard** tog'lardadir. Tizmalar orasida sinklinal depressiyalar joylashgan.




Bunday depressiyalardan eng kattasi kichik Karru botig'i deb ataladi. Kengroq Katta Karru depressiyasi Kap tog'larini Janubiy Afrika yassi tog'ligining Buyuk jarligidan bo'lib turadi. Janubi-g'arb va janubda tog'lar qulay buxtalari bo'lgan sohilga burchak hosil qilib yaqinlashib kelgan.

Uncha baland bo'lmagan
Supa tog'ning etagidagi
ana shunday buxtalardan
birida Janubiy Afrikadagi
eng katta va eng chiroyli
shahar hamda port
Keyptaun joylashgan. Kap
o'lkasi, xususan uning
g'arbiy sohilida yog'in-
sochin O'rta dengiz bo'yi
rejimida bo'lib yog'inning
ko'pchilik qismi qishda
yog'adi, yozi quruq keladi.



Yomg'ir yog'ishi aprelda boshlanadi va iyundan sentabr oxirigacha ayniqsa ko'p bo'ladi, so'ngra tugaydi, chunki sernam g'arbiy shamollar o'niga subtropik antisiklon keladi. Kap oblastida sernam mavsumning oxiri Janubiy Afrikaning boshqa qismlarida shu mavsum boshlangan davrga to'g'ri keladi. Deyarli hech joyda yiliga 750 mm dan ortiq yomg'ir yog'maydi va eng baland tizmalarning g'arbiy yonbag'irlaridagina 1000 mm dan ortiq yog'in tushadi. Ichki botiqlari, xususan Kichik Karru botig'i juda qurg'oqchil yillik yog'in 150-300 mm bo'lib dehqonchilik uchun yaroqsiz.


Kap o'lkasi Janubiy Afrikaning qolgan qismidan yog'in-sochin rejimiga ko'ragina emas, balki Kap florasida deb ataladigan o'ziga xos o'simliklari bilan ham farq qiladi. Bu o'simliklar tashqi qiyofasiga ko'ra O'rta dengiz bo'yi florasiga o'xshaydi. Bu rayonda protey va ro'tlar oilalariga mansub o'simliklar bor.





Okeanga qaragan
yonbag'ir-
larda qarag'ay va yavvoyi
mevali daraxtlardan iborat
siyrak o'rmonlarning kichik
massivlari uchraydi. Butazor
va o'rmonlar orasidagi katta
maydonlarda piyozboshlilar
ildizmevalilar va
ildiztanlilar-
dan iborat o'tlar bilan
qoplangan. Bu o'tlar gulsap-
sarlar orxideyalar va
labgullilar oilalaridandir.

Bo'znochlilar, sinerariyalar
va boshqa murakkab
gullilar ham
xarakterlidir. Xilma-xil
dekorativ o'simliklar ana
shu yerdan butun dunyoga
tarqalgan. Yevropadan Kap
o'lkasiga ko'pgina
madaniy
o'simliklar: boshoqlilar, tok,
zaytun, anjir, olma va bosh-
qalar keltirilgan. Hozirgi
vaqtda o'rmonlar o'rnini
katta maydonlarda ekinlar
egallagan.





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT.